

IBN SINONING HAYOTI VA MA'NAVIY MEROSINING FALSAFIY TAHLILI

Nurova Shoxida Naimovna - Buxoro davlat universiteti tadqiqotchisi

nurovashoxida1971@gmail.com

Annotatsiya: Maqolada Ibn Sinoning hayoti va ma'naviy va ilmiy merosini o'rganish, insonlarning ma'naviyat, axloq, ta'lim-tarbiya sohasida olib boradigan ishlariga keng imkoniyatlar yaratishi va insonlar o'rtasida o'zaro hurmat, mehr-oqibat, mehnatsevarlik, yurtparvarlik va insonparvarlik kabi tamoyillar farzandlar tarbiyasida muhimligi bayon qilingan.

Kalit so'zlar: Inson, ma'naviy meros, ta'lim-tarbiya, axloq, qadriyat, axloqiy tarbiyalash, ma'naviyat, ta'lim, tarbiya, ilm-fan.

ФИЛОСОФСКИЙ АНАЛИЗ ДУХОВНОГО НАСЛЕДИЯ ИБН СИНА.

Нурова Шахида Наимовна - научный сотрудник Бухарского

государственного университета

nurovashoxida1971@gmail.com

Аннотация: В статье изучается жизнь и духовно-научное наследие Ибн Сины, создание им широких возможностей для работы людей в области духовности, этики и образования, взаимного уважения, доброты, таких принципов, как трудолюбие, патриотизм. и гуманизм считаются важными в воспитании детей.

Ключевые слова: Человек, духовное наследие, образование, мораль, ценности, нравственное воспитание, духовность, воспитание, воспитание, наука.

PHILOSOPHICAL ANALYSIS OF THE SPIRITUAL HERITAGE OF IBN SINA

Nurova Shahida Naimovna - Researcher at Bukhara State University

nurovashoxida1971@gmail.com

Abstract: In the article, the study of Ibn Sina's life and spiritual and scientific heritage, his creation of wide opportunities for people's work in the field of spirituality, ethics, and education, and mutual respect, kindness, principles such as hard work, patriotism and humanitarianism are stated to be important in raising children.

Key words: Man, spiritual heritage, education, morality, value, moral education, spirituality, education, education, science.

Kirish

Fenomenal kuchli va noyob xotira, ulkan iste'dod va shon-shuhrat sohiblari bo'lgan buyuk shaxslarning avvali bashariyat fani taraqqiyotiga beqiyos ulkan hissa qo'shgan movarounnahrlik buyuk donishmand, jahon fanlari tarixida qomusiy olim sifatida tan olingan, chuqur xotirali, o'tkir aqlli va olov yurakli inson Abu Ali Husayn ibn Abdulloh ibn Hasan ibn Ali ibn Sino hisoblanadi. XII asrdan boshlab g'arb mamlakatlarida Avitsenna nomi bilan mashhur olimning qoldirgan boy va serqirra ilmiy merosi jahon fani rivojiga ijobiy ta'sir etishda davom etmoqda.

Buyuk ensiklopedist olim va mutafakkir Ibn Sinoning ilmiy merosi fan va madaniyatimiz tarixida muhim o'rin egallaydi. Ayniqsa, uning antropologiya va tabiatshunoslik fani taraqqiyotiga qo'shgan hissasi har tomonlama chuqur tahlil etilishga loyiqdir.

Asosiy qism

Abu Ali ibn Sino milodiy 980 yil 16 avgust kuni Buxoroga yaqin Afshona qishlog'ida (Buxoro viloyatining Peshku tumani)dunyoga keladi. Otasi Abdullox asli Balxlik (Afg'oniston) bo'lib, Buxoroda amir Nuh ibn Mansur davrida xizmat qiladi. Keyinchalik Afshona qishlog'iga kelib qoladi va shu yerda uylanadi. Ibn Sinoning onasi haqida deyarli ma'lumotlar yo'q, faqatgina tarixchi Yu.Boyxokinning qo'lyozmasidan Afshona qishlog'ida tug'ilganligi va ismi Sitora bo'lganligini bilish mumkin.

“Ibn Sinoning asli nomi Husayn to'la ismi Abu Ali al-Husayn ibn Abdulloh al-Hasan ibn Ali ibn Sino (Yevropada Avitsenna). Uning oilasi 985 yili Buxoroga ko'chib keladi. Otasi Abdulloh o'z davrining savodxon kishisi bo'lgan va farzandlariga yaxshi ta'lim berishga intilgan”[1]. Sharq manbalarida olim ko'pincha “Shayx” yoki “Shayx ar-Rais” unvoni bilan e'zozlanadi. Donishmandlar, allomalar sardori ma'nosiga ega, xalqning mehr-muhabbatini ifodalagan bu nom Sharqu G'arbning olimga bo'lgan ehtiromi belgisidir.

Zamondoshlari Husayn ibn Sinoni “Donishmandlar sardori, allomalar boshlig'i” (“Shayx ar-Rais”), “Saltanat sharafi va iftixori” (“Sharaf al-Muluk”),

“Rostlik dalili, obro‘si” (“Hujjat al-kak”), “Islom obro‘si” (“Hujjat al-Islom”) Islom dalili), “Donishmandlar vaziri” (“Hakim al-vazir”), “Buyuk tabib” (“Hakimi Buzurg”) deb ataganlar. Oxirgi 10 asr davomida olimlar va tadqiqodchilar tomonidan, “Abu Ali ibn Sino (Avitsenna) - eng mashhur musulmon olimi va barcha xalqlar va davrlarning eng mashhur kishilaridan biri”, “Aql-zakovatning ajoyib mo‘jizasi”, “Tibbiyot dunyosining quyoshi”, degan nomlar bilan tariflanib kelinganligi haqida ma’lumotlar keltirilgan.

Ibn Sinoning otasi ismoiliylar mazhabiga mansub edi. Bu hol Ibn Sinoning dunyoviy bilimlarni keng miqyosda o‘rganishiga imkoniyat yaratib berdi, chunki ismoiliylar ta’limoti o‘sha davrda ma’lum darajada dunyoviy ilmlarni, tabiatshunoslikni o‘rganishga xayrixohlik bilan qarar edilar. Ibn Sino oilasida ismoiliylar ta’limotiga oid turli suhbatlar bo‘lib turar, bu esa uning ilmiy qiziqish va tasavvurlarining shakllanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatardi.

Ibn Sino nihoyatda iste’dodli, xotirasi o‘tkir zehqli bo‘lganidan yoshligidayoq o‘z davrida ma’lum bo‘lgan barcha ilmlarni tez va chuqur egallagan. Tarixiy manbalarning xabar berishicha, u 10-13 yoshida mantiq, fiqh, falsafa, matematika, tibbiyot masalalari bilan shug‘ullangan. Buxoroda istiqomat qilgan olimlardan Abu Abdullo Notiliy 12 yoshli Ibn Sino otasining taklifi bilan unga qadimgi dunyo, xususan, yunon falsafasi tarixidan, mantiq (logika), fiqh (islom huquqshunosligi), falsafa va aniq fanlar tarixidan dars bergan. Ammo tez orada fanlarning asoslarini chuqur o‘zlashtira olgan Ibn Sinoga domlalarining xizmati ortiqchalik qiladi va u mustaqil ravishda mutolaa qilishga kirishadi. Ibn Sino o‘z tarjimai holida yozishicha, qisqa vaqt ichida u tibbiyot ilmini o‘zlashtirgan, qadimgi yunonning mashhur tabiatshunos olimlari Gippokrat va Galenning asarlarini, Sharqning mashhur hakimi Zakariyo Roziyning asarlarini qunt bilan mutolaa qilgan va olgan bilimlarini amalda tadbqiq etish uchun, ayni vaqtda, tabiblik bilan shug‘ullangan. U Buxoroda 16-17 yoshida mashhur tabib sifatida shuhrat qozonadi, 17 yoshida Somoniylar davlatining boshlig‘i 34 yoshli amir Nux ibn Mansurni davolab, uning ruxsati bilan Buxorodagi amir kutubxonasidan foydalanish huquqiga ega bo‘ladi. Ibn Sino ta’rificha, bu kutubxona o‘sha davrdagi

eng mashhur kutubxonalardan biri bo'lib, unda bilimning barcha sohalariga oid qimmatbaho kitoblar mavjud bo'lgan.

Bu kutubxona haqida Abu Ali ibn Sino shunday deb yozadi: “Kutubxona bir necha xonalardan iborat edi, har bir xonada bir-birining ustiga taxlangan va kitobga to'la sandiqlar mavjud edi. Bir xonada arab tilidagi kitoblar va she'rlar, boshqasida qonunshunoslik (fiqh)ga oid va shunday tartibda har bir xonada fanning qandaydir sohasiga oid kitoblar mavjud edi. Men bu yerda shunday kitoblarni uchratdimki, bularning nomini ilgari ko'pchilik hech eshitmagan va men ham ilgari uchratmagan edim va keyin ham uchratmadim. Va lekin o'sha kitoblarni o'qib chiqdim, ulardagi foydali tomonlarni o'zlashtirdim. 18 yoshga kirganimda fanlarni mutolaa qilishni tugatdim” [2].

Ibn Sino Aristotelning “Metafizika” kitobini 16 yoshida qirq marta o'qigan va u yod bo'lib qolgan, ammo mohiyatini tushunmagan. Faqat Abu Nasr Forobiyning Aristotelning “Metafizika” asariga yozgan sharhini o'qigandan keyingina unga tushungan. Bu haqda Ibn Sino deb yozadi:

“Men mantiqni, tabiiy va matematika fanlarini mukammal o'rgangach, ilohiyotga murojaat qildim va “Metafizika”ni o'qib chiqdim [3]. Biroq men bu asarning ma'nosini tushuna olmadim va bu kitobni yozganning maqsadi mendan maxfiy edi. Men “Metafizika”ni 40 marta qayta o'qidim, uni yodladim ham, biroq hamon bu kitobning maqsadini tushuna olmadim. Mayuslanib o'zimga o'zim aytar edim: “Bu shunday kitobki, uni tushunishning yo'li yo'qdir”. Kunlardan bir kuni namozgar payti men bozorda, muqovachilar qatorida bo'ldim, kitobfurushlardan biri bir kitobni qo'lida ushlab, uni maqtar edi va menga uzatdi. Men esa “Bu fandani foyda yo'q” deb uning talabini rad etar edim. U esa “Bu kitobni sotib ol, juda narxi arzon, uch dirhamga sotaman, kitob egasi pulga juda muxtoj”, deb yolvorar edi. Men bu kitobni sotib oldim, u Abu Nasr Forobiyning “Metafizika” maqsadi haqidagi asari ekan. Uyimga qaytib, tezlik bilan uni mutolaa qila boshladim, “Metafizika”ni yoddan bilganim uchun uning maqsadi menga ayon bo'lib qoldi. Bu holdan juda xursand bo'lib, ertasi kuni juda qo'p mollarimni kambag'allarga inom etdim” [4].

Abu Ali ibn Sino bizgacha saqlangan tarjimai holida, jumladan, shunday deb yozadi: “So‘ngra men tabiblik qilish faniga qiziqqa boshladim va unga oid kitoblarni mutolaa qila boshladim. Tib fani uncha murakkab fan bo‘lmagani uchun uni qisqa muddatda egalladim va hatto, eng mashhur tabiblar ham mendan tabiblikni o‘rganadigan bo‘ldilar. Men kasallarni borib ko‘rar edim va tabiblik tajribasi tufayli davolashning shunchalik natijasiga erishdimki, uni tasvirlash mushkuldir. Shu paytda men o‘n olti yoshda edim. Shundan so‘ng yana bir yarim yil mobaynida fanlar bilan falsafaning barcha qismlarini o‘rgandim. Bu vaqt ichida biror kechasi to‘la uxlagan emasman, kunduzlari esa fanlarni o‘rganishdan bo‘lak biror ish bilan shug‘ullanmadim. Uyquq qistagan qisqa damlarda, ko‘zim yumilishi bilan uyg‘oqligimda meni qiynagan masalani tush ko‘rardim va haqiqatan ham, ko‘p mushkul ilmiy muammolar tushimda menga oydinlashardi. Barcha fanlarni o‘rganmaguncha, inson qobiliyati muvofiq uni egallamaguncha men shu tariqa harakat qildim, urindim” [5]. Albatta, fanlarning mohiyatini, cho‘qqisini egallash oson ish emas edi. Buni Ibn Sino e‘tirof etadi.

“Abu Ali ibn Sinoning hayot yo‘lini tadqiq qilgan sovet olimlaridan A.A.Semyonovning ta’kidlashicha, olim dunyoqarashining shakllanishiga, uning yetuk alloma bo‘lib yetishib chiqishiga Buxorodagi shart-sharoit ijobiy ta’sir o‘tkazgan. “Buxoroda o‘sha davr intellektual hayotidagi mavjud barcha g‘oyaviy oqimlarning vakillarini uchratish mumkin edi. Ular o‘zaro bahslashar, g‘oyaviy kurash, hatto qonli kurashgacha olib borar edi. Shuningdek, Buxoro bozorlarida arabcha va forsha qo‘lyozmalar sotilar, bozorga yaqin mahallalarda juda ko‘p muqovachilar va kitob ko‘chiruvchi mirzolar yashar edi, Buxoroda tabiblar va arab mamlakatlaridan kelib qolgan ismoilizm tarafdorlari yashar edi, bular tabiatshunoslik fanlaridan matematika, astronomiya, tibbiyot kabi fanlardan oilalarda dars berishar edi” [4]. Bu yerdagi asarlar bilan tanishish, ularni qunt bilan mutolaa qilish tufayli Ibn Sino o‘z bilimlarini yanada chuqurlashtirdi, xususan, Aristotel va Forobiy asarlarini o‘rganish Ibn Sino dunyoqarashining shakllanishiga katta ta’sir o‘tkazdi” [6]. Xullas, buyuk allomaning Buxoroda yashagan yillari

fanlarni mustaqil o'zlashtirish va o'zining original asarlarini yozish uchun nazariy-amaliy zamin tayyorladi.

Manbalarning guvohlik berishicha, "Buxoroda 1000-1001 yillar mobaynida Ibn Sino bir necha ilmiy-falsafiy asarlar, jumladan, "al-Majmu", "al-Xasil-va-l-maxsul", "Kitob-ul-birr-va-l-ism" kabi kitoblar yozgan, afsuski, bu asarlar bizgacha yetib kelmagan. Buxoroda yashagan chog'larida Ibn Sino xorazmlik buyuk mutafakkir Abu Rayxon Beruniy bilan xat orqali Aristotel falsafasi xususida ilmiy munozaralar olib borgan. Ibn Sinodan yetti yosh ulug' bo'lgan Beruniy yosh olimning aqli, zakovati va chuqur bilimiga qoyil qolgan".

Abu Ali ibn Sinoning hayoti va ijodiyoti nihoyatda og'ir sharoitlarda o'tdi. Garchi umrining asosiy qismini quvg'inlarda, vatandan yiroqda o'tkazgan bo'lsa-da, Ibn Sino ilm-fan, tibbiyot, pedagogika, falakiyotshunoslik, islom fiqhshunosligi bilan shug'ullanib, o'zidan katta ilmiy meros qoldirishga va bu meros hozirgi kunga qadar inson va uning farovonligi yo'lida xizmat qilib kelmoqda.

Abu Ali ibn Sinoning o'z oilasi, xotini, farzandlar merosxo'rlari bo'lmasada, shogirdlari, qo'ni-qo'shnilari, butun xalqni, o'z oila a'zolari, farzandlari singari ko'rgan. Olim ta'lim-tarbiya masalalariga jiddiy va ijodiy yondashgan. Uning bolani tarbiyalash, o'qitish haqidagi ko'p fikrlari mazmun mohiyati jihatidan chuqurligi, insonparvarligi va teranligi bilan ajralib turadi. Ibn Sino o'zining ta'lim-tarbiya tizimiga odob, falakiyotshunoslik, til va uning grammatikasi, islom fiqshunosligini kiritgan.

Ibn Sinoning ilmiy merosi shunday tengsiz ummonki, unga inongan har qanday inson, mislsiz javohirga ega bo'ladi. Olimning boy merosi ilmiyligi va hayotiyliigi bilan umrboqiydir. Shu jihatidan serqirra ensiklopedist sifatida o'z davridagi barcha fanlar bilan shug'ullanganligi muvaffaqiyatlarini qayd qilgan holda buyuk vatandoshimizdan o'rnak olsak arziydi. Uning hayot va faoliyati, ilmiy merosi bizni qayta-qayta Ibn Sinoni "o'qish" va "o'qib" olgan holda amaliyotiga tadbiiq etishda metodologik funksiyani bajaradi.

Ibn Sinoning eng muhim falsafiy asarlari: "Kitob ash-Shifo", "Kitob an-najot", "Risola fil ishq", "Risola at-tayr", "Mabda va maod", "Al-ishorot va

tanbihot”, “Mavjudotlar haqiqati va sifatlarining silsila va o‘zaro sababiy aloqalar haqida”, “Saodatga yetish yo‘li haqida”, “Axl risolasi”, “Aqliy ilmlar tasnifi”, “Nafs risolasi”, “Manzil tadbiri”, “Tush ta‘biri”, “Kadr risolasi”, “Murshid ul-kifoya”, “Azzaviya risolasi” va boshqalar.

Ibn Sino juda yoshligidanoq musiqa ilmiga qiziq boshlagan. U yoshligida riyoziyot (matematika) ilmini puxta o‘rganishga harakat qilib, uning tarkibiy (amaliy) qismi bo‘lgan musiqa ilmida mustaqil ta‘limot qaratdi. Bu ta‘limot keng va chuqur yoritilganligi sababli nafaqat Sharq, balki G‘arb musiqasining keyingi rivojlanishida ham muhim ahamiyat kasb etdi. Ibn Sino yashagan davrda maqom iborasi hali keng joriy qilinmasdan, Roh (raxoviy), Zirafqand, Navro‘z kabi kasbiy musiqa namunalariga xos nomlar bilan yuritilgan. Keyinchalik musiqa tafakkurining yuksak namunalaridan bo‘lgan maqomlarning joriy qilinishi munosabati bilan Ibn Sinoning musiqaga doir asarlari muhim ahamiyatga ega bo‘la boshladi. Buyuk faylasuf, tabiatshunos, mashhur tabib va musiqa nazariyayotchisi sifatida dunyoga tanilgan Ibn Sinoning musiqa merosi asosan uning Kitab-ush-shifa” (“Shifo kitobi”), “Donishnoma” (“Bilim kitobi”), Risalatun fi-ilmil musiqiy” (“Musiqiy ilmi haqida risola Dakot” kitobi, “Tib qonunlari”, “Ishq risolasi” kabi yirik qomusiy asarlari orqali bizgacha yetib kelgan. Afsuski, uning Ibn Usayba tilgan olgan “Madxal sina‘ati al- (“Musika san‘atiga kirish”). Ibn Sinonni o‘zi “Shifo” kitobida qayd qilgan “Kitob al-lavoxik” (“qo‘shimchalar kitobi”) kabi musiqaga oid asarlari bizgacha yetib kelmagan.

Ibn Sino musiqa haqida maxsus asarlar yozish bilan birga musiqa nazariyasiga bag‘ishlangan asarlarini tibbiyot kitoblariga ham kiritadi. “Shifo” kitobining “Javomi ilm al-musika” (“Musika ilmi yig‘indisi”) deb nomlangan qismi, “Najot” kitobining “Muxtasar ilm-al musika” (“Musika ilmi haqida qisqacha ma‘lumot”), “Donishnoma” ning musiqaga oid qismlari shular jumlasidandir [7].

Ibn Sinoning “Tib qonunlari” kitobida musiqaning inson ruhiga ta‘siri borasida fikrlar bildirib, uni ruhiy kasalliklarga “Shifo” dasturi sifatida tavsiya etgan. U insonning jismoniy va ruhiy sog‘lomligi bir xilda muhim ahamiyatga ega

ekanligi to'g'risida gapirib, inson jismi (tanasi) xastalikka uchrasa, bu xastalik uning ruhiy holatiga ham salbiy ta'sir ko'rsatishini, aksincha unda paydo bo'lgan ruhiy xastalik (tushkunlik) esa albatta uning jismoniy sog'lomligiga putur yetkazishini dalillab bergan. Ibn Sinoning tavsiyasiga ko'ra turli ruhiy kasalliklarini davolashda milliy cholg'ular (tanbur, nay va boshqalar)dan unumli foydalanish katta samara beradi. Ya'ni bu davolash uslubi va vositalari bemorni nafaqat kasaldan forig' qiladi, balki uning ruhiy muvozanatini mustahkamlaydi.

Xulosa

Husayn ibn Sino hayotligidayoq afsonalarga sabab bo'lgan yuksak iste'dod egasi bo'lgan. Uning beqiyos aql-idroki, donishmandligi, juda ko'p yo'nalishdagi bilimlar majmuasini bilganligi, minglab kasalliklarni aniqlay va davolay oladigan ajoyib shifokorligi haqida ertaklar, afsonalar va rivoyatlar xalq og'zaki ijodi yordamida hozirgacha yetib kelgan. Xalqlar o'zlarining ezgu orzu-umidlarining ro'yobga chiqishini Husayn ibn Sino nomi bilan bog'laganlar. Natijada uni hayotlik chog'ida qozongan shon-shuhratiga qaraganda bir necha barobar ortiq iste'dod sohibi sifatida aks ettiruvchi juda ko'plab naqlar, ertaklar, afsonalar va rivoyatlar yuzaga kelgan.

Qadimiy sharq rivoyati hikoya qiladi: Sharqning ulug' iste'dod sohibi, daho Husayn ibn Sino tong saharda tug'ilib yorug' dunyoga kelganida, odamlar chaqaloq yig'isini emas, kulgisini eshitgan ekanlar, Afshona qishlog'idagi barcha qushlar sayragan, hovlidagi uy hayvonlari maroqli ma'ragan ekan. Xusayn ibn Sino onasi Sitorabonu yangi tug'ilgan chaqaloqni ustini ko'rpa bilan yopgan holatni shogirdi Abu Ubayd Juzjoniya so'zlab quyidagicha ta'riflaydi: "Men birdan yorug'likni ko'rdim, so'ngra yana qorong'ilik, zulmat cho'kdi". Xusayn ibn Sinoning juda ham yoshlik paytidagi namoyon bo'lgan favqulodda hayron qolarli faxmlash qobiliyati, sezgirligi va kuzatuvchanligi uning keyingi hayot jarayonida ham yorqin namoyon bo'ldi va qator afsona va hikoyatlarda o'z ifodasini topdi. Husayn ibn Sino mehnatkashligining chegarasi bo'lmagan. Turli manbalarda keltirilishicha olim o'zidan keyin 450 dan ortiq bir necha sahifadan to bir necha jildgacha bo'lgan asar yozib qoldirgan, lekin hozirgacha 276 tasi yetib kelgan va

ulardan o'rganilganlari, o'rganilish bosqichidagilari va o'rganilishni kutayotganlari anchagina. Ibn Sino hayot yo'li va ta'limotidagi insoniylikka oid ilg'or fikrlarni ta'lim va tarbiya jarayonida va ommaviy axborot vositalari orqali targ'ib etishda foydalanish o'rinlidir.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Абдувалиев А.А. Ар-Розий ва Ибн Сино тиббий таълимотининг замонавий артрология учун аҳамияти. Т.: -2007. –Б. 25. Ибн Синонинг шогирди Абу Убайд Жузжоний томонидан ёзиб қолдирилган таржимаи ҳоли Ибн-ул-Қифтийнинг “Тарих-ул-ҳукамо” (“Донишмандлар тарихи”) китобига киритилган. Китоб 1903 йили Лейпцигда нашр этилган. ЎзССР ФА Шарқшунослик институтиб инв.№ 12712

2. Семёнов А. А. Абу Али ибн Сина (Авиценна). Таджик-госиздат, 1953, с. 34.

3. Shodiyev Jahongir Jo'raqulovich. Inson qadri va uning huquqlari eng oliy qadriyat: tarixiy-huquqiy meros. Ilm sarchashmalari/ Urganch – 3.2023. 19-21.

4. Shodiyev, J. J. (2023). THE ROLE OF SCIENTIFIC THINKING AND MENTAL DEVELOPMENT IN IMPROVING HUMAN DEVELOPMENT AND VALUE. Innovative Development in Educational Activities, 2(9), 251-261.

5. Shodiyev, J. J. (2023). THE ROLE OF THE NATIONAL IDEA IN INCREASE OF HUMAN VALUES. Innovative Development in Educational Activities, 2(7), 616-625.

6. Jurakulovich, S. J. (2023). PHILOSOPHICAL VIEWS OF SAGES ON HUMAN VALUES AND GLORIFYING HIM. THEORY AND ANALYTICAL ASPECTS OF RECENT RESEARCH, 2(16), 229-238.

7. Сахл Беруний билан Ибн Синонинг савол-жавоблари. Тошкент 1950; - Б. 55. Беруни и Ибн Сина. Переписка, Ташкент, 1973. – с. 63.